

## ILMIY MAQOLA YOZISH VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Muallif: Xusniddinova Soliha**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti, 1-ingliz fakulteti

**Annotatsiya:** Ushbu tezis ilmiy maqola yozish qoidalari va unga qo'yiladigan asosiy talablarni o'rganishga qaratilgan. Bu tezisdagi ilmiy maqolaning tuzilishi, yozish bosqichlari hamda ilmiy uslub xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola yozishda aniqlik, mantiqiylik va manbalardan samarali foydalangan holda plagiat oldini olish ahamiyatlari asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy maqola, qoidalar, tadqiqot, ilmiy uslub, struktura, annotatsiya, xulosa, manbalar

**Аннотация:** Данная работа посвящена изучению процесса написания научной статьи и основных требований к ней. В ней рассматриваются структура научной статьи, этапы её написания и особенности научного стиля. Также обосновывается важность точности, логичности и правильного использования источников при написании научной работы.

**Ключевые слова:** научная статья, правила, исследование, научный метод, структура, аннотация, заключение, источники.

**Annotation:** This thesis is devoted to the study of the process of writing a scientific article and its main requirements. It analyzes the structure of a scientific paper, the stages of writing, and the features of academic style. The importance of clarity, coherence, and proper use of sources in academic writing is also emphasized.

**Keywords:** scientific article, rules, research, scientific method, structure, annotation, conclusion, sources

**Kirish:** Hozirgi sun'iy intellekt va globallashuv davrida ilm-fan va ta'lim sohasining rivojlanishi ilmiy maqolalarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Nafaqat ustozlar, balki talaba-o'quvchilar ham ommaviy ravishda maqolalar, ilmiy ishlar qilishni o'rganishmoqda. Ilmiy maqola — bu tadqiqot natijalarini keng jamoatchilikka yetkazishning eng muhim vositalaridan biridir. Va bu orqali yuzlab hatto minglab odamlar qilingan tadqiqot haqida malumotga ega bo'ladilar. Har bir tadqiqotchi o'z ilmiy faoliyati davomida maqola yozishi va maqola yozish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Ilmiy maqola yozish nafaqat bilim, balki aniq metodologiya, kreativlik, tartibni ham talab qiladi. Mazkur tezisning asosiy maqsadi ilmiy maqola yozish jarayonini o'rganish va unga qo'yiladigan asosiy talablarni tahlil qilishdan iborat.

Ilmiy maqola yozish jarayoni bir necha muhim bosqichlardan iborat. Avvalo, tadqiqot mavzusini to'g'ri tanlash lozim. Ya'ni siz qaysi yo'nalishdan ketmoqchisiz? Bu mavzu muhimlik darajasi qanday? Bu mavzu qanchalik yoritilgan, va manbaalar yetarli mi?, kabi savollarga javob berishingiz kerak bo'ladi. Mavzu dolzarb, ilmiy ahamiyatga ega va o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan bo'lishi kerak.

Keyingi bosqich — ilmiy manbalarni o'rganishdir. Bu jarayonda kitoblar, elektron kitoblar, maqolalar, ilmiy jurnallar va ishonchli internet manbalaridan foydalaniladi. Manbalarni tanlashda ularning dolzarbligiga va ishonchliligiga alohida e'tibor berish kerak.

Ilmiy maqolaning tuzilishi odatda quyidagicha bo'ladi: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar yoritiladi. Asosiy qismda tadqiqot natijalari, tahlillar va dalillar keltiriladi. Bu qism eng muhim bo'lib, muallifning ilmiy yondashuvi aynan shu yerda namoyon bo'ladi. Va muallif o'z fikrlarini, o'rganganlarini batafsil izohlab tushuntirsa bo'ladi.

Ilmiy maqola yozishda ilmiy uslubga rioya qilish zarur. Bu uslub aniqlik, mantiqiylik, qisqalik va obyektivlik bilan ajralib turadi. Fikrlar izchil va tushunarli tarzda bayon etilishi kerak. Shuningdek, terminlardan to'g'ri foydalanish ham muhimdir.

Bundan tashqari, ilmiy maqolada plagiatga yo'l qo'yimaslik eng muhim talablardan biridir. Har qanday olingan ma'lumot manba bilan tasdiqlanishi kerak. Iqtiboslar to'g'ri rasmiylashtirilishi lozim. Shundagina ham akademik halollik, hamda plagiat oldini olgub bo'linadi.

**Natijalar:** O'rganishlar natijasida ilmiy maqola yozish murakkab, ammo tizimli jarayon ekanligi aniqlandi. Maqolaning sifatli bo'lishi uchun uning tuzilishiga rioya qilish, ilmiy uslubni to'g'ri qo'llash va ishonchli manbalardan foydalanish zarur. Shuningdek, ilmiy maqola yozish ko'nikmasi muntazam mashq va tajriba orqali shakllanishi hammamizga birdek ma'lum. To'g'ri yondashuv orqali har bir tadqiqotchi sifatli ilmiy ish yaratishi mumkin.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, ilmiy maqola yozish — bu ilmiy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. U muallifdan nafaqat bilim, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va yozish ko'nikmalarini talab qiladi. Vaqt ko'p talab qilishiga qaramasdan, tadqiqotchi ilmiy faoliyatiga ko'plab muvaffaqiyatlar olib keladi.

Ilmiy maqolaga qo'yiladigan talablarni to'liq bajarish uning sifatini oshiradi, o'qishlilik qiladi va ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli har bir talaba va tadqiqotchi ilmiy maqola yozish qoidalarini chuqur o'rganishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'yicha darsliklar
2. Akademik yozuv qo'llanmalari
3. Ilmiy jurnallar va maqolalar
4. Internet manbalari